

APRO platformasi Xorazm viloyatida yaratilgan va 2020-yildan buyon xorazmlik o‘quvchi va pedagoglar uchun bepul foydalanib kelinmoqda. Ushbu platforma yaratilgan payti birgina maktab bitiruvchilarini OTMga tayyorlash uchun yaratilgan va bugungi kunga kelib esa 5 ta yo‘nalish ish boshlagan (OTMga tayyorlash, attestatsiyaga tayyorlash, Milliy sertifikatga tayyorlash, IELTSga tayyorlash, Menejerlik kurslariga tayyorlash) platformada doimiy yangilanishlar olib borilmoqda.

Ushbu platformadan Xorazmlik pedagoglar bepul ishlash uchun umumiy o‘rtalim muassasasi yoki maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbariyatiga murojaat qilib olgan login parolingiz bilan kirsangizgina bepul bo‘ladi. Aks xolda siz boshqa foydalanuvchilar qatori ro‘yxatdan o‘tsangiz platforma sizni Xorazm viloyatidan ekaningizni tanimaydi va sizga ham pullik login parol beradi. Bepul ishslash faqat Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining buyrug‘i bilan belgilangan “Kasbiy rivojlanish kunlari”da ochiq holatda bo‘ladi.

Platformada har bitta savollarni ishlappingiz uchun belgilangan to‘lojni amalga oshirishingiz kerak bo‘ladi. Bunda siz paket sotib olish orqali pulingizni tejashingiz yoki har xili aksiyalar qo‘llanilgan kuni 30%dan 50%gacha chegirmalar bilan ishlab olishingiz mumkin. Shuningdek, 90 ball va undan yuqori natijalarga erishsangiz sizga yana bitta bepul ishslash uchun bonus beradi.

Ushbu platforma o‘quvchilarni OTMga tayyorlash va ularni qiziqishlari hamda bilim darajasiga mos keladigan qaysi OTMlariga grantga qaysilariga shartnomaga kira olishi mumkinligini tahlil qilib beradi. O‘quvchilar testlarda qayerida xatoliklarga yo‘l qo‘yliganligini bilib o‘z ustida qayta ishlashlari va o‘qib o‘rganishlari uchun ham yo‘nalish beradi.

Shuningdek, APRO platformasi o‘qituvchilarni attestatsiya jarayonlariga tayyorgarlik ko‘rishlari uchun ham ko‘maklashadi bunda MMTV tomonidan e’lon qilingan spetsifikatsiya va darsliklar ro‘yxatidan foydalangan xolda Oliy toifali va yuqori natijalarga erishgan ekspertlar tomonidan tuzilgan testlarni o‘qituvchilar ishlashadi. Natijalarini ko‘rib xatoliklar bo‘lsa ushbu xatoliklar ustida o‘zlar mustaqil ishlashadi, platforma xatolikni qaysi sinfni, qaysi darsligini, qaysi mavzusida qilayotganini ko‘rsatib o‘qituvchilarga yo‘nalish beradi.

Platformada milliy sertifikatga tayyorlash bo‘yicha ham testlar bazasi shakllangan bo‘lib siz O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan ishlab chiqilgan testlar spetsifikatsiyasi bo‘yicha tuzilgan test topshiriqlarini yechib ko‘rishingiz va xatoliklaringiz ustida ishlappingiz mumkin, bunda sizga qaysi darajada javob bergenningiz bo‘yicha rash modelini qo‘llagan xolda tashxis beradi.

Til bilish ko‘nikmalariningizdan tinglab tushunish va o‘qib tushunish ko‘nikmalariningizni baholab beradi. Natijada qaysi ko‘nikma bo‘yicha qaysi darajaga erisha olishingizni IELTS baholash shkalasi bilan tashxis beradi. Bu platformadan foydalanish ixtiyoriy bo‘lib Respublika bo‘yicha o‘nminglagan foydalanuvchilar ishlab kelmoqda.

Platformadagi test topshiriqlari sizga yuqoridagi tayyorgarlik yo‘nalishlarining asosiy jarayonlarida tushishiga kafolat berilmaydi. Bu platformadagi testlar ehtimoliylik nazariyasiga asoslangan xolda tuzilgan. Siz test topshiriqlarni ishlagach

sizning to‘lovingiz bo‘yicha ma’lum xizmat ko‘rsatilgan hisoblanadi va pulingiz qaytarilmaydi. Qandaydir muammoli holatlar bo‘lsa texnik qo‘llab quvvatlash guruhi orqali yordam beriladi. Sizga savollarda e’tirozlar bo‘lsa e’tiroz yuborish tugmasi orqali amalga oshiriladi.

APRO platformasi ma’muriyati